

ALISHER NAVOIY – DAVLAT ARBOBI SIFATIDA: XV ASRDA XALQPARVARLIK G'OYALARI VA ULARNING AMALIY IFODASI

Xushyorov Javohir Dilshodbek o'g'li

University of Business and Science

Tarix mutaxassisligi bo'yicha 2-kurs magistranti

xushyorovi@gmail.com

Alisherov Axmadali Adxamjon o'g'li

University of Business and Science

Tarix mutaxassisligi bo'yicha 2-kurs magistranti

axmadillo698@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada Temuriylar davri, xususan, Sulton Husayn Boyqaro hukmronligi ostidagi XV asr Markaziy Osiyosining ijtimoiy-siyosiy va madaniy taraqqiyoti fonida Alisher Navoiy shaxsiyati va faoliyati tahlil qilinadi. Alisher Navoiy nafaqat mumtoz adabiyotning yetuk namoyandasi, balki xalqparvarlik, ma'rifatparvarlik va axloqiy boshqaruv tamoyillarining amaliy ifodasini hayotga tatbiq etgan davlat arbobi sifatida yoritiladi. Uning davlat boshqaruvidagi g'oyalari, ijtimoiy islohotlari va asarlaridagi siyosiy-falsafiy qarashlari zamonaviy davlat boshqaruvi nazariyalari bilan uyg'unlikda baholanadi.

Kalit so'zlar: Alisher Navoiy, Temuriylar davri, davlat boshqaruvi, xalqparvarlik, ijtimoiy adolat, vakf tizimi, ma'naviy yetakchilik.

Abstract: The article analyzes the personality and activities of Alisher Navoi against the background of the socio-political and cultural development of Central Asia in the 15th century during the reign of Sultan Husayn Boykaro, in particular, during the reign of Sultan Husayn Boykaro. Alisher Navoi is highlighted not only as an outstanding representative of classical literature, but also as a statesman who put into practice the principles of popularism, enlightenment, and moral governance. His ideas

on state governance, social reforms, and political and philosophical views in his works are evaluated in harmony with modern theories of state governance.

Keywords: Alisher Navoi, Timurid era, state governance, popularism, social justice, waqf system, spiritual leadership.

Аннотация: В статье анализируется личность и деятельность Алишера Навои на фоне общественно-политического и культурного развития Средней Азии в XV веке в период правления султана Хусейна Бойкаро, в частности, в период правления султана Хусейна Бойкаро. Алишер Навои выделяется не только как выдающийся представитель классической литературы, но и как государственный деятель, воплощавший в жизнь принципы народничества, просвещения и нравственного управления. Его идеи о государственном управлении, социальных реформах, политико-философские взгляды в его трудах оцениваются в гармонии с современными теориями государственного управления.

Ключевые слова: Алишер Навои, эпоха Тимуридов, государственное управление, народничество, социальная справедливость, система вакфов, духовное лидерство.

XV asr Markaziy Osiyo taraqqiyoti tarixida Temuriylar sulolasi hukmronligi, ayniqsa Sulton Husayn Boyqaro davri, siyosiy barqarorlik, ma'naviy uyg'onish va madaniy yuksalish bilan ajralib turadi. Ana shu tarixiy muhitda o'z davrining yetuk mutafakkiri, adibi va davlat arbobi sifatida shakllangan Alisher Navoiy nafaqat mumtoz adabiyotning yirik siymosi, balki amaliy xalqparvarlik va ma'rifat asosidagi davlat boshqaruvi g'oyalarining targ'ibotchisi sifatida ham alohida o'rin egallaydi. Uning faoliyati adolat, insonparvarlik va ilm-ma'rifat tamoyillariga tayanib, o'z davrida keng qamrovli ijtimoiy-siyosiy islohotlarning amaliy ifodasiga aylangan.

Alisher Navoiy (1441-1501) Hirotda tavallud topib, Temuriylar saroyida yetishgan, sulton Husayn Boyqaroning yaqin maslahatchisi, muhrdor, vazir va madaniy-ijtimoiy muassasalar kuratori sifatida xizmat qilgan. U davlat xizmatini oddiy idoraviy faoliyat emas, balki xalq dardiga yechim topish vositasi deb bilgan.

“Rahbarlik - bu burch emas, mas’uliyat” degan fikr uning boshqaruvdagi asosiy mezoniga aylangan. U davlat va jamiyat manfaatlarini uyg‘unlashtirishga intilgan, poraxo‘rlik, mansabparastlik va isrofgarchilik kabi illatlarga qarshi kurashgan. Ayniqsa, “Munshaot” to‘plamidagi maktublarida davlat amaldorlarining axloqiy majburiyati, xalq oldidagi javobgarligi va ijtimoiy tenglik tamoyillari ilgari surilgan. Navoiy o‘z mablag‘lari hisobidan keng ko‘lamli ijtimoiy loyihalarni amalga oshirgan. Uning tashabbusi bilan shifoxona (Xastibixon), ilm va tibbiyot markazi (Dorushshifo), o‘quv dargohlari (Nizomiya madrasasi), karvonsaroylar, hammomlar, suv yo‘llari, ko‘priklar barpo etilgan. Bu inshootlar jamiyatda ijtimoiy himoya, sog‘liqni saqlash va ta’lim tizimini shakllantirishga xizmat qilgan. Navoiy tomonidan ishlab chiqilgan vakf tizimi-xayriya asosida barqaror moliyalashtiriladigan muassasalar tarmog‘i-o‘rta asrlar uchun innovatsion va ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan yuksak tizim bo‘lib, nafaqat o‘z davrida, balki kelajak avlodlar uchun ham xizmat qilishi ko‘zda tutilgan. Hirot shahri aynan Navoiy tashabbuslari natijasida Sharqdagi ilg‘or ilm-ma’rifat, tibbiyot va madaniyat markaziga aylangan. Navoiy asarlarida jamiyat, rahbar shaxsiyati, adolatli boshqaruv g‘oyalari chuqur falsafiy tahlilga tutilgan. “Mahbub ul-qulub”da jamiyatdagi har bir qatlam - dehqon, hunarmand, olim, soliq yig‘uvchi, faqir kabi toifalarning o‘z o‘rni va mas’uliyati aniq belgilab berilgan. Bu orqali u jamiyatni axloq, mas’uliyat va mehr-oqibat asosida boshqarish g‘oyasini ilgari suradi. “Saddi Iskandariy”da esa tarixiy obraz orqali adolatli hukmdor siymosi vositasida halollik va insonparvarlik targ‘ib etiladi. “Hayrat ul-abror” asarida esa siyosiy boshqaruvning axloqiy poydevori, davlat rahbarining ma’naviy kamoloti muhim omil sifatida ko‘rsatilgan. “Nasoyim ul-muhabbat”da esa jamiyatdagi ruhiy uyg‘unlik, ichki poklik va ma’naviy intizom orqali barqarorlikka erishish zarurligi ta’kidlanadi. Navoiy faoliyati va qarashlari bugungi davr uchun ham dolzarb. U ilgari surgan quyidagi tamoyillar hozirgi zamonaviy boshqaruv konsepsiyalariga mos tushadi:

Inson kapitaliga sarmoya - maktab, madrasa, tibbiy muassasalar qurilishi;

Ijtimoiy adolat - kambag‘allar, bevalar, yetimlar va kasallarni himoyalash;

Axloqiy boshqaruv etikasi - rahbar shaxsining odobi, mas’uliyati va halolligi;

Davlat va jamiyat integratsiyasi - qarorlar xalq manfaatlariga asoslangan bo'lishi kerak. Navoiy merosi nafaqat madaniy, balki ijtimoiy-siyosiy, boshqaruv va huquqiy jihatdan ham chuqur tahlil qilinishi lozim bo'lgan tarixiy tajribadir. Ijtimoiy tenglik, davlatning ijtimoiy mas'uliyati, muhtoj qatlamni qo'llab-quvvatlash siyosati davlat boshqaruvida muhim yo'nalish bo'lib qolmoqda. Bugungi global boshqaruv tizimlarida inson kapitali, ijtimoiy adolat, raqamli transformatsiya va barqaror taraqqiyot kabi tamoyillar ilgari surilayotgan bir davrda Alisher Navoiy tomonidan XV asrdayoq amalda qo'llangan boshqaruv tamoyillari o'z dolzarbligini yo'qotmagan. Uning ijtimoiy loyihalari - shifoxona, maktab, madrasalar barpo etish, bevosita xalq manfaatiga qaratilgan bo'lib, bu hozirgi kunda "ijtimoiy davlat" konsepsiyasining dastlabki tarixiy namunalaridan biri sifatida baholanishi mumkin.

Shuningdek, Navoiyning vakf tizimi orqali moliyaviy barqarorlikni ta'minlash g'oyasi zamonaviy notijorat sektor, grantlar asosidagi ta'lim va sog'liqni saqlash tizimlari, jamoatchilik fondlari faoliyati bilan funksional o'xshashlikka ega. Bu esa uning qarashlarini faqat o'z davri bilan emas, balki bugungi boshqaruv paradigmatlari bilan ham uyg'un deb hisoblash imkonini beradi. Uning boshqaruvdagi axloqiy yondashuvi - rahbar shaxsining ma'naviy kamoloti, shaffoflik va halollik talablari - bugungi good governance (yaxshi boshqaruv) tushunchasining tarixiy ildizlari sifatida ham ko'riladi. Xususan, xalq bilan muloqot, rahbarning xalq dardiga quloq tutishi va har bir qatlam muammosini bilib boshqaruvga yo'naltirish tamoyillari bugungi zamonaviy demokratik islohotlar mazmuni bilan uyg'unlashadi.

Xulosa.

Alisher Navoiy faoliyati davlat arbobi sifatida o'z davri uchun ilg'or siyosiy, ijtimoiy va madaniy g'oyalarni ilgari surgan, amaliyotga tatbiq etgan ulkan tarixiy tajriba maktabidir. U rahbarlikni mas'uliyat, halollik, xalq dardini tushunish va adolat asosida olib borishni targ'ib qilgan. Navoiyning vakf tizimi asosidagi ijtimoiy muassasalarni barpo etishi, shaxsiy mablag'lari hisobidan sog'liqni saqlash, ta'lim va

ijtimoiy himoya sohalarini rivojlantirish borasidagi ishlari - o'rta asrlar uchun innovatsion yondashuv bo'lib, bugungi ijtimoiy davlat tushunchasiga uyg'un tajriba hisoblanadi. Shuningdek, Navoiy asarlarida ilgari surilgan siyosiy-axloqiy qarashlar - rahbar shaxsining ma'naviy yetukligi, xalq oldidagi javobgarligi, adolat va ijtimoiy tenglik tamoyillari - bugungi zamonaviy boshqaruv nazariyalari, jumladan, "good governance", "inclusive development" va "human-centered policy" kabi tushunchalar bilan uyg'unlashadi. Bu esa Navoiy merosining nafaqat madaniy, balki siyosiy, boshqaruv va huquqiy sohalar uchun ham dolzarb manba ekanligini isbotlaydi. Shu bois, Alisher Navoiy merosi chuqur ilmiy tahlilni, tarixiy-falsafiy yondashuvni va zamonaviy boshqaruv paradigmalari bilan qiyosiy o'rganishni talab etadi. Bu meros - kelajak rahbarlari uchun axloqiy mezon, jamiyat uchun barqarorlik modeli va butun insoniyat uchu qadriyatlar manbaidir.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Navoiy, A. (1991). *Mahbub ul-qulub*. Toshkent: Fan nashriyoti. - 320 b.
2. Navoiy, A. (1981). *Munshaot*. Toshkent: Fan nashriyoti. - 212 b.
3. Navoiy, A. (1983). *Xamsa*. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. - 658 b.
4. Qayumov, A. (1991). *Alisher Navoiy va uning davri*. Toshkent: O'zbekiston. - 274 b.
5. Sultonov, M. (2015). *Temuriylar davrida davlat boshqaruvi va ijtimoiy tuzum*. Samarqand: Registon. - 187 b.
6. Rashidov, A. (2009). Navoiyning ijtimoiy g'oyalari va bugungi boshqaruv konsepsiyalari bilan uyg'unligi. // *Ma'naviyat va zamon*, №3. - B. 45-51.
7. Azizxo'jayev, B. (2020). Navoiy merosining good governance nazariyasidagi tutgan o'rni. *Ilmiy izlanishlar jurnal*, №2. - B. 102-108.
8. UNESCO. (2001). *Alisher Navoi: Life and Heritage*. Paris: UNESCO Publishing. - 116 p.
9. Karimov, I. (1997). *Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q*. Toshkent: Sharq. - 234 b.

10. Djalilov, S. (2005). *Timurid Governance and Intellectual Culture*. Tashkent: Barkamol. - 198 b.